e-mail: common@airtech.uz
tel: + 998 (55) 503-16-20

www.uzairways.com
www.airtech.uz

UZBEKISTAN AIRWAYS TECHNICS

Since 1924

Mas'uliyati cheklangan jamiyati | Limited liability company

BUYRUQ | ПРИКАЗ

20 25 y «28» 08 № 282

О внедрении антимонопольной комплаенс системы в ООО "Uzbekistan Airways Technics"

В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 6 июля 2020 года УП-№ 6019 "О дополнительных мерах по дальнейшему развитию конкурентной среды и сокращению участия государства в экономике" и Постановлением Кабинета Министров от 3 марта 2021 года № 114 "О мерах по внедрению антимонопольной комплаенс системы", а также в целях совершенствования работы по внедрению антимонопольной комплаенс системы в ООО "Uzbekistan Airways Technics"

П Р И К А З Ы В А Ю:

1. Принять к сведению и исполнению Указ Президента Республики Узбекистан от 6 июля 2020 года УП-№ 6019 "О дополнительных мерах по дальнейшему развитию конкурентной среды и сокращению участия государства в экономике" и Постановление Кабинета Министров от 3 марта 2021 года № 114 "О мерах по внедрению антимонопольной комплаенс системы".

2. Реализацию мер по полному и эффективному внедрению системы антимонопольного комплаенса в ООО "Uzbekistan Airways Technics" возложить на начальника отдела Внутреннего антикоррупционного контроля Ахмедова О.Я.

3. Утвердить Сведения об ответственном уполномоченном лице, назначенном для обеспечения внедрения и эффективного функционирования антимонопольной комплаенс системы в ООО "Uzbekistan Airways Technics" (приложение № 1), Положение о порядке внедрения и функционирования антимонопольной комплаенс системы в обществе (приложение № 2) и «Дорожную карту» на 2025 год по снижению рисков нарушения требований Законодательных актов о конкуренции (приложение № 3).

4. Приказ довести до сведения лиц, согласно расчета рассылки.

5. Контроль за исполнением приказа возложить на директора ООО "Uzbekistan Airways Technics".

Директор **Ibragimov F.I.**

O'zbekiston, Toshkent, 100167 Uchuvchilar shaharchasi
Uzbekistan, Tashkent, 100167 Aviagorodok

Приложение № 2 к приказу ООО «UAT»
от 28 августа 2025 года
№ __282__

ПОЛОЖЕНИЕ
о порядке внедрения и функционирования антимонопольной комплаенс системы в ООО “Uzbekistan airways technics”

Общие положения

1. Настоящее Положение определяет порядок внедрения, функционирования и мониторинга антимонопольной комплаенс системы в ООО “Uzbekistan airways technics”.

2. В настоящем Положении используются следующие основные понятия:

антимонопольный орган - Комитет Республики Узбекистан по развитию конкуренции и защите прав потребителей и его территориальные управления;

антимонопольный комплаенс - система внутренних организационных процедур по обеспечению соответствия деятельности законодательства о конкуренции, выявлению рисков их нарушения и по их предупреждению;

отчет об антимонопольном комплаенсе - документ, содержащий информацию об организации работы по соблюдению законодательства о конкуренции;

ответственное лицо (подразделение) - наименование ответственного лица или отдела (управления);

торги - процедуры, связанные с покупкой и продажей товаров и услуг, включая процедуры электронной торговли.

3. Основными задачами антимонопольной комплаенс системы являются:

выявление, оценка и анализ рисков возможных нарушений требований законодательства о конкуренции;

обеспечение и мониторинг соответствия требованиям законодательства о конкуренции в Обществе;

предотвращение нарушений требований законодательства о конкуренции в деятельности Общества и антиконкурентных действий со стороны руководителей при исполнении ими своих должностных обязанностей;

оценка и обеспечение эффективности функционирования антимонопольной комплаенс системы в Обществе;

предотвращение нарушений требований конкурентного законодательства среди работников Общества и развитие у них понимания конкурентного законодательства путем регулярного обучения по данному направлению.

Создание антимонопольной комплаенс системы

4. В целях внедрения антимонопольной комплаенс системы в органах государственного управления, местной исполнительной власти и хозяйствующих субъектах, обеспечения ее функционирования и мониторинга назначается уполномоченное лицо (подразделение) в соответствии с организационной структурой, штатной численностью и характером деятельности.

Анализ организации и эффективности работы антимонопольной комплаенс системы в органах государственного управления, местной исполнительной власти и хозяйствующих субъектах осуществляется руководителем в органах государственного управления, хокимиятом в местной исполнительной власти и исполнительным органом или наблюдательным советом в хозяйствующих субъектах.

5. Ответственное лицо (подразделение) осуществляет следующее:

мониторинг нарушений требований законодательства о конкуренции;

анализ материалов, касающихся деятельности (в том числе инвентаризация внутренних документов, направленных на выявление норм, ограничивающих конкуренцию и (или) права и интересы потребителей), разработка мер по устранению выявленных недостатков;

разработка предложений по выявлению и устранению факторов, которые могут вызвать ограничения конкуренции;

координация взаимодействия с другими структурными подразделениями по вопросам, связанным с функционированием антимонопольной комплаенс системы;

организация исследований, связанных с нарушением требований законодательства о конкуренции;

обмен информацией с антимонопольным органом о нарушениях требований законодательства о конкуренции;

разработка и обеспечение реализации годовой «Дорожной карты» по снижению рисков нарушения требований законодательства о конкуренции;

мониторинг изменений в законодательстве о конкуренции, а также внесение предложений по внесению соответствующих изменений в ведомственные акты;

выявление рисков нарушения требований законодательства о конкуренции, ведение учета рисков и определение вероятности их возникновения;

выявление конфликтов интересов, которые могут вызвать конкурентные ограничения в деятельности общества, разработка предложений по их устранению;

консультирование работников Общества по вопросам, связанным с соблюдением требований законодательства о конкуренции;

регулярное проведение тренингов по вопросам антимонопольной комплаенс системы;

изучение проектов документов принимаемых Обществом и в случае выявления обстоятельств, которые могут привести к нарушению требований законодательства о конкуренции, информировать об этом руководителя;

организация внедрения и эффективного функционирования антимонопольной комплаенс системы в Обществе;

представлять отчет об антимонопольном комплаенсе на утверждение руководству до 1 февраля ежегодно.

Уполномоченное лицо (подразделение) подчиняется непосредственно руководителю и подотчетно ему.

Выявления нарушений требования законодательства о конкуренции

6. В целях выявления рисков нарушения требований законодательства о конкуренции в ООО “Uzbekistan airways technics” уполномоченным лицом (подразделением) осуществляется следующее:

изучение нормативно-правовых актов с целью выявления норм и правил, приводящих к нарушению требований законодательства о конкуренции или ограничению конкуренции на рынке;

изучение новых ограничений, новых видов разрешительных процедур, дополнительных требований или условий для получения лицензий, а также документов разрешительного характера или лицензий и внедрения требований технического регулирования;

анализ соблюдения антимонопольных требований при подаче заявок на тендерные и биржевые торги;

изучение соответствия государственных закупок требованиям законодательства о конкуренции;

анализ выявленных нарушений требований законодательства о конкуренции;

мониторинг и анализ практики применения законодательства о конкуренции;

регулярно оценивать эффективность разработанных и реализуемых мер по снижению рисков нарушения требований законодательства о конкуренции;

анализ возможных антимонопольных рисков и составление их перечня ввиде карты комплаенс-рисков.

Реализация других мер, направленных на эффективное функционирование антимонопольной комплаенс системы, исходя из специфики деятельности Общества и по согласованию с руководством.

7. Риски, выявляемые уполномоченным лицом (подразделением) по нарушению требований законодательства о конкуренции, распределяются по уровням в соответствии с приложением к настоящему Положению.

8. Информация об анализе, выявлении и оценке рисков нарушения требований законодательства о конкуренции включается в отчет об антимонопольном комплаенсе.

Оценка эффективности функционирования антимонопольной комплаенс системы

9. Расчет основных показателей по оценке эффективности работы антимонопольной комплаенс системы в ООО “Uzbekistan airways technics” ведется на основе методики, разработанной антимонопольным органом.

10. Уполномоченное лицо оценивает основные показатели эффективности антимонопольной комплаенс системы общества (не реже одного раза в год).

11. Информация об основных показателях оценки эффективности функционирования антимонопольной комплаенс системы Общества включается в отчет об антимонопольном комплаенсе.

Отчет об антимонопольном комплаенсе

12. Отчет об антимонопольном комплаенсе включает в себя следующее:

результаты проведенной работы по оценке рисков нарушения требований законодательства о конкуренции и реализации мер по их снижению;

информация о достижении основных показателей эффективности антимонопольной комплаенс системы.

13. Отчет по антимонопольному комплаенсу, утвержденный обществом, размещается на официальном веб-сайте общества и в течение трех рабочих дней направляется в антимонопольный орган.

ПРИЛОЖЕНИЕ

КЛАССИФИКАЦИЯ

степени нарушений требований законодательства о конкуренции

Оценка вероятности (вероятность возникновения)	**Степень последствий**		
	Низкий	**Средний**	**Высокий**
Высокая вероятность			
Средняя вероятность			
Низкая вероятность			

* Классификация рисков по степени нарушения требований законодательства о конкуренции имеет рекомендательный характер и может быть изменена в зависимости от специфики деятельности рынка.

“UAT” MChJning
2025-yil 28 -avgustdagi
282-sonli buyrug‘iga
2-ilova

"Uzbekistan airways technics" MChJda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish va uning faoliyat ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida
NIZOM

Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom **“Uzbekistan airways technics” MChJda** monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

monopoliyaga qarshi kurashish organi — O‘zbekiston Respublikasi raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari;

monopoliyaga qarshi komplaens — faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta’minlash, ularning buzilish xatarlarni aniqlash va mazkur xatarlarning oldini olish bo‘yicha ichki tashkiliy taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplaens to‘g‘risidagi hisobot — raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish haqidagi axborotni o‘z ichiga oladigan hujjat;

mas’ul shaxs (bo‘linma) — mas’ul shaxs yoki bo‘lim (boshqarma) nomi yoziladi;

savdolar — tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

3. Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash, baholash hamda uni boshqarish;

Jamiyatda raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta'minlash va monitoring qilish;

Jamiyatning faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda rahbarlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini ishlash samaradorligini baholash va ta'minlash;

Jamiat xodimlarida raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o‘qitish yo‘li bilan raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish

4. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta'minlash va monitoring qilish maqsadida tashkiliy tuzilma, shtatdagi xodimlar soni va faoliyat xususiyatiga muvofiq vakolatli shaxs (bo‘linma) tayinlanadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda monopoliyaga qarshi komplaens tizimini tashkil etish va uning ishlash samaradorligini baholash davlat boshqaruvi organlarida rahbar tomonidan, mahalliy ijro etuvchi hokimiyatda hokim tomonidan va xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ijro etuvchi organ yoki kuzatuv kengashi tomonidan amalaga oshiriladi.

5. Mas’ul shaxs (bo‘linma) quyidagilarni amalga oshiradi:

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qilish;

faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralarni ishlab chiqish;

raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha boshqa tuzilmaviy bo‘linmalar bilan o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirish;

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablari buzilish bilan bog‘liq o‘rganish ishlarini tashkil etish;

monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo‘yicha o‘zaro axborot almashish;

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan "Yo‘l xaritasi" ni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlarida o‘zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar berish;

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash, xavflar bilan bog‘liq holatlar hisobini yuritish va yuzaga kelish ehtimolini belgilash;

Jamiyatning faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

Jamiyat xodimlariga raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berish;

monopoliyaga qarshi komplaens masalalari bo‘yicha muntazam ravishda treninglar o‘tkazish;

Jamiyat tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihalarini o‘rganish va raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xolatlar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish;

Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko‘rasatishini tashkil etish;

xar yili birinchi fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotni rahbariyatga tasdiqlash uchun taqdim etish.

Vakolatli shaxs (bo‘linma) bevosita rahbarga bo‘ysunadi va hisobdor bo‘ladi.

Raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash

6. "Uzbekistan airways technics" MChJda raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash maqsadida vakolatli shaxs (bo‘linma) tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o‘rganish;

joriy etiladigan yangi cheklovlar, ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, lisenziyalarni, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni yoki lisenziyalarni olish uchun qo‘shimcha talablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o‘rganish;

tender va birja savdolariga qo‘yiladigan buyurtmalarni monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish;

davlat xaridlarining raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o‘rganish;

aniqlangan raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlarini qo‘llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish;

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash;

vujudga kelish ehtimoli bo‘lgan monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va ularning ro‘yxatini komplaens-xavflar xaritasi ko‘rinishida tuzish;

Jamiyatning faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan hamda rahbariyat bilan kelishilgan holda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining samarali ishlashiga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ham amalga oshirish.

7. Raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish bo‘yicha vakolatli shaxs (bo‘linma) tomonidan aniqlanadigan xavflar mazkur Nizomning ilovasiga muvofiq darajalar bo‘yicha taqsimlanadi.

8. Raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

Monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash

9. "Uzbekistan airways technics" MChJda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash monopoliyaga qarshi kurashish organ tomonidan ishlab chiqilgan metodikaga asosan hisoblab boriladi.

10. Vakolatli shaxs (bo‘lim) jamiyatda monopoliyaga qarshi komplaens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

11. Jamiyat monopoliyaga qarshi komplaens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarga erishilgani to‘g‘risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobotga kiritiladi.

Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot

12. Monopoliyaga qarshi komplaens haqidagi hisobot quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflari bo‘yicha o‘tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning bajarilishi;

monopoliyaga qarshi komplaens tizimining asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

13. Jamiyat tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplaens bo‘yicha hisobot jamiyatning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.

Ilova

Raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo‘yicha

XAVFLAR TASNIFI*

Ehtimollikni baholash (yuz berish ehtimollari)	**Oqibatlar darajasi**		
	Past	**O‘rtacha**	**Yuqori**
Yuqori ehtimollik			
O‘rtacha ehtimollik			
Past ehtimollik			

* Raqobat to‘g‘risidagi Qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish darajasi bo‘yicha xavflar tasnifi tavsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, bozor faoliyatining o‘ziga xos xususiyatiga qarab o‘zgartirilishi mumkin.